

SPORT MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YOSHLARDA MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Isoqov Jamshid Zikrillayevich

JizDPU Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh avlodda ma’naviy-axloqiy fazilat va sifatlarni shakllantirishning pedagogik mohiyati hamda mazmuni yoritilgan. Maqolada yoshlarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, bu boradagi pedagogik muammolar va ularni hal etish yo‘llari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ma’naviyat, axloq, fazilat, tarbiya, pedagogik jarayon, shaxs kamoloti.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО- НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ У МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ СПОРТИВНЫХ ЗАНЯТИЙ

Аннотация. В данной статье рассматривается педагогическая сущность и содержание формирования духовно-нравственных качеств и качеств у молодого поколения. В статье разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию процесса формирования духовно-нравственных качеств молодежи, выявлены педагогические проблемы в этой области и пути их решения.

Ключевые слова: молодежь, духовность, нравственность, добродетель, воспитание, педагогический процесс, личностное развитие.

PEDAGOGICAL PROBLEMS OF FORMING SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES IN YOUTH BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF SPORTS TRAINING

Abstract. This article discusses the pedagogical essence and content of the formation of spiritual and moral qualities and qualities in the younger generation. The article develops scientific and practical recommendations for improving the process of forming spiritual and moral qualities of young people, reveals pedagogical problems in this regard and ways to solve them.

Keywords: youth, spirituality, morality, virtue, education, pedagogical process, personal development.

Har qanday jamiyatning kelajakdagi taraqqiyoti shu jamiyatda yoshlar ta’lim-tarbiyasiga beriladigan e’tibor darajasiga bevosita bog‘liqdir. Jumladan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida

soʻzlagan nutqida bu hususda toʻxtalar ekan “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson boʻlib kamolga yetishi bilan bogʻliq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning oʻz salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”, - deb taʼkidlaydilar. Shu maʼnoda, Oʻzbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar ijtimoiy faoligini oshirishning institutsional tizimini takomillashtirish zarurati yuzaga kelganligi va yoshlar ijtimoiy faoligini oshirish – aniq maqsadga qaratilgan tashkiliy-pedagogik jarayon ekanligi, unda yoshlarda shakllangan ijtimoiy faollik sifatlarining takomillashtirilishi va boyitib borilishi zarurati asoslanadi. Zero, «bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovatsion asosda rivojlantirish, oʻz oldimizga qoʻygan koʻp qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham masʼuliyatni oʻz zimmasiga olishga qodir boʻlgan, gʻayrat-shijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni ishonib topshirmoqdamiz». Shuning uchun ijtimoiy faol ergashtiruvchi, liderlik sifatiga ega, masʼuliyatli, fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash dolzarb pedagogik vazifalardan biriga aylanmoqda

Yoshlar shaxs sifatida shakllanar ekan oʻzida jamiyatga hos boʻlgan ijtimoiy jihatlarni shakllantirib boradi. Yaʼni ijtimoiylashuv jarayonini boshdan kechiradi. Ijtimoiylashuv jarayoni esa murakkab mexanizmga ega. Bu mexanizmning ruhiy va ijtimoiy-madaniy jihatlari mavjud. Ijtimoiylashuv mexanizmining ruhiy jihati individ tomonidan maʼlum ijtimoiy rollarning qabul qilinishi (yoki qabul qilinmasligi)da namoyon boʻladi. Uning ijtimoiy-madaniy jihati esa insonning til, sanʼat, din va shu kabilar orqali madaniy qadriyatlarni oʻzlashtirish jarayonini qamrab oladi. Aynan mana shu faoliyatni boshqaruvchi obrazlar, ideallar qatorida shaxsning hayotiy maqsadlari hal qiluvchi rol oʻynaydi. Shu oʻrinda ruhshunos olim L.V.Soxanning “Aynan shaxsning hayotiy maqsadlari faoliyatning undovchi sababi hisoblanadi”, degan fikrini keltirish oʻrinlidir. Yoshlarning jamiyatdagi oʻrni, mavqei va faolligining asosiy determinanti va yoʻnaltiruvchi omili sifatida hayotiy maqsad tushunchasini oʻrganish shu jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoning ilmiy tahlili jarayonida oʻrganilgan psixologik-pedagogik adabiyotlarda kreativ fikrlash va ijodiy tasavvur alohida ilmiy tadqiqot manbasi sifatida oʻrganilgan. Kreativ fikrlash va ijodiy tasavvur inson hayoti davomida orttirgan tajriba negizida shunchaki yangi narsani ijodkori boʻlib qolmasdan, balki boshqa odamlar xayoliga kelmaydigan, tasavvur olamiga sigʻdira olmaydigan gʻoya va fikrlar hamda maʼnaviy-moddiy ijod mahsulini oʻz shaxsiy faoliyatida namoyon eta oladi.

Insoniyatning tarixiy-hayotiy tajribalari shuni tasdiqlaydiki, insonlarda faqatgina ijobiy, balki, anchayin salbiy fazilatlar ham azaldan mavjud boʻlgan. Shuning uchun ham xalq orasida inson fazilatlarini azaldan ikki maʼnoda: ijobiy va salbiy maʼnoda keng qoʻllangan. Bularning birinchisi maʼnaviy-axloqiy fazilatlar, xislatlar va sifatlar boʻlsa, ikkinchisi - maʼnaviy-axloqiy noqisliklar, qusurlar va

ayblardir. Har ikkalasi ham butunlay boshqa-boshqa tushunchalar bo'lsa-da, ular inson faoliyatida va axloqida muntazam ravishda alohida namoyon bo'lib boradi. Quyida biz jamiyatda tan olingan, xalq orasida inson fazilatlarining ijobiy ma'noda keng qo'llaniladigan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, xislatlar va sifatlar to'g'risida fikr yuritamiz.

Zukkolik va idroklilik fazilatlar. Insondagi bu fazilatlar axloqiy tarbiya tizimida alohida o'rin tutadi, shuning uchun ham ma'naviy-axloqiylik fazilatlarining eng yetakchilari sanaladi. Bunday fazilatlar quyidagilardan iborat: zehnlilik, ba'manilik, xotirjamlik, sog'lom fikrlilik, donishmandlik, sezgirlilik, zakovatlik, topqirlik, notiqlik, tanqidiylik, dadillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, tezkorlik, bilimlilik, salohiyatlilik, mahoratlik, oqillilik, zukkolik, malakalilik, mohirlik, iste'dodlik, teranlik, ziyraklik va boshqalar.

Zukkolik va idroklilik fazilatlar orasida – ilmga intiluvchanlik, bilimlilik, zehnlilik, zakovatlik, savodxonlik, iste'dodlik, oqillilik kabi tushunchalar alohida o'rin tutadi. Ularning hammasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ayni chog'da, yonma-yon turadigan, bir-birini to'ldiradigan ma'nodosh tushunchalardir. Shuning uchun ham ularning jamul-jami insonda mavjud bo'lmasa, undagi zukkolik va idroklilik fazilatlar shakllana olmaydi. Buning uchun eng avvalo, har bir yosh avlodda ilmga intiluvchanlik qobiliyatini o'stirish va natijada bilimlilik kabi insoniy fazilatni yanada rivojlantirmog'imiz zarur. Bu vazifa hozirgi kunda eng dolzarb va davr talabi. "Bilimli deb, narsa-hodisalarning tom ma'no va mazmuniga tushunib yetib, ularni tashkil qiluvchi qonuniyatlarni (bilimlarni) bilib olib, o'z tafakkuri va taxayyulidan o'tkazib, ularni hayotda bir necha bor sinab ko'rib, so'ng ma'lum bir tartibda xotirasida saqlagan kishiga nisbatan aytiladi".

Muqaddas va buyuk ajdodlarimiz bizga qoldirgan barcha adabiy –badiiy, tarixiy, etnografik va etnopedagogik manbalarda, shuningdek, folklor namunalarida inson zoti egallashi zarur bo'lgan ma'naviy qadriyatlar va fazilatlar haqida noyob ma'lumotlar uchraydi. Ular orasida eng avvalo, Oллоhning karami va so'zi ifodalangan Qur'oni Karim alohida o'rin egallaydi. Bu muqaddas kitob insondagi barcha ijobiy fazilatlarini shakllantiruvchi diniy, ta'limiy va ilmiy manba hisoblanadi.

Ajdodlarimiz har bir yosh avlodni ilm olishga, ilmi bo'lishga chaqirib, har tomonlama namuna bo'la oladigan yetuk, hunarli, kasb-korli shaxslar bo'lishini ta'kidlab, ilmning xosiyati va hunarli kishilarning ma'naviy fazilatlar haqida bir qator maqollarni yaratganlar. Ularda yoshlar tarbiyasi uchun ma'naviy qadriyatlar ustun qo'yiladi, xalqona xulosalar yetakchilik qiladi. Masalan, "Olim bo'lish oson - odam bo'lish qiyin" maqolida ta'lim-tarbiya ishining asl mohiyati barkamol insonni tarbiyalash ekanligi o'z ifodasini topgan. Xalq tasavvurida muayyan bilimlarni egallab olim bo'lishdan ko'ra, odam bo'lish qiyin hisoblangan.

Olim bo'lish uchun chuqur bilimga egalik, o'z sohasining donishmandi bo'lish kifoya qilgan. Odam bo'lish esa bir qator ezgu fazilatlarga ega bo'lishni talab etganki, unga hamma ham muvaffaq bo'lavermagan. Chunki xalq har doim haqiqiy komil inson shakllantirishni orzu qilgan. Shu sababli yoshlarni axloqli, ma'naviy

yetuk, ezgu-sifatli inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar. Ustoz tanlashda ham uning bilimdonligi va insoniy fazilatlari hisobga olingan.

Yosh avlodda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimining eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir. Ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalash uchun, avvalo, oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning uzviy hamkorligi zarur. Yoshlarning axloqiy qarashlari, dunyoqarashi va ijtimoiy faolligi ko'p jihatdan ularning olgan tarbiyasi, o'qituvchi va atrof-muhit ta'siriga bog'liqdir.

Ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, buyuk ajdodlarimizning merosi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, o'qituvchining shaxsiy namunasi, ma'naviy dunyosi va pedagogik mahorati yoshlarning ruhiy-axloqiy kamolotida asosiy omil hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yoshlarni ma'naviy jihatdan yetuk, axloqan barkamol qilib tarbiyalash — bu nafaqat ta'lim tizimining, balki butun jamiyatning umumiy vazifasidir. Shu bois pedagogik jarayonda ma'naviy-axloqiy tarbiyani chuqur o'rganish, zamon talablari asosida takomillashtirish va samarali usullarni qo'llash bugungi kunning dolzarb pedagogik muammosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida”gi PQ–4068-son qarori. — Toshkent, 2018 yil.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020 yil.